



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

O'ZBEKISTON VA XITOY: MILLATLARARO MUNOSABATLAR SOHASIDA HAMKORLIKNING YANGIDAVRI

Saodat Davlatova

Tarix fanlari doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi

Millatlararo munosabatlar va xorijiy davlatlar bilan

do'stlik aloqalari qo'mitasi markazi rahbari

Toshkent, O'zbekiston

Email: saodatdavlatova70@gmail.com

MA QOLA HA QIDA

Kalit so'zlar:

O'zbekiston, Xitoy, millatlararo munosabatlar, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari, hamkorlik, milliy madaniy markazlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston – Xitoy munosabatlarining savdo-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-gumanitar hamkorligidagi aloqalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonning millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlikni mustahkamlash borasida olib borayotgan ishlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining xorijiy bo'limida bu borada erishgan natijlari ochib berilgan. Millatlararo munosabatlar qo'mitasi o'z faoliyati doirasida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosatini izchil hamda samarali amalga oshirib kelmoqda.

Hozirgi kunda Qo'mita jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish, do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari bilan "xalq diplomatiyasi" mexanizmidan foydalangan holda o'zaro hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekistonning millatlararo munosabatlar va xorijiy aloqalarini mustahkamlash uchun olib borayotgan ishlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, millatlararo, madaniyatlararo, konfessiyalararo bag'rikenglikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Mazkur aloqalar zamirida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'rnatilgan o'zaro ishonchli munosabatlarda terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotik va noqonuniy qurol-yarog'lar savdosiga bo'yicha qarashlarning mushtarakligini ko'rsatadi. Qolaversa, O'zbekistonning XXI

asrning eng qudratli davlatlaridan biri – Xitoy Xalq Respublikasi bilan nafaqat millatlararo, madaniyatlararo, balki siyosiy, iqtisodiy, savdo, ilm-fan va madaniy sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni o‘rnatish va rivojlantirishda yangi davr hamkorligini yo‘lga qo‘yanligini isbotladi. Ushbu yangi davrda tomonlar o‘rtasida kompleks strategik sheriklikni rivojlantirish bo‘yicha besh yillik dastur ham amalga oshirilmoqda.

UZBEKISTAN AND CHINA: A NEW ERA OF COOPERATION IN INTERNATIONAL RELATIONS

Saodat Davlatova

*Doctor of Historical Sciences, Associate Professor
Head of the Center of the Committee on Interethnic Relations and Friendly Ties with Foreign Countries under the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, China, international relations, friendly relations with foreign countries, cooperation, national cultural centers.

Abstract: This article emphasizes the importance of trade, economic, social, cultural and humanitarian relations between Uzbekistan and China. Also, Uzbekistan’s efforts to strengthen international ties and friendly relations with foreign countries were disclosed in the foreign policy department of the Committee on Interethnic Relations and Friendly Relations with Foreign Countries under the Ministry of Culture.

The Committee on Interethnic Relations consistently and effectively implements state policy to ensure interethnic harmony and tolerance in society. Currently, the Committee is implementing state policy aimed at ensuring interethnic harmony and tolerance in society, establishing friendly international relations, and implementing mutual cooperation with civil communities of foreign countries using the mechanism of “public diplomacy.”

Uzbekistan’s efforts to strengthen interethnic ties and external relations are important and serve to strengthen interethnic, intercultural and interfaith tolerance.

At the core of this relationship, the mutual trust established between Uzbekistan and China demonstrates a commonality of views on terrorism, extremism, separatism, drugs and the illegal arms trade. In addition, Uzbekistan marked the beginning of a new era of cooperation with one of the most powerful countries of the 21st century - the People’s Republic of China, not only in the international, intercultural, but also in the political, economic, trade, scientific and cultural spheres. has proven that it has delivered In this new period, a five-year program for the development of a comprehensive strategic partnership

between the parties is being implemented.

УЗБЕКИСТАНИ КИТАЙ: НОВАЯ ЭРА СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Саодат Давлатова

доктор исторических наук, доцент

*Руководитель центра Комитета по межнациональным
отношениям и дружественным связям с зарубежными
странами при Министерстве Культуры Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Узбекистан, Китай,
международные отношения,
дружественные отношения с
зарубежными странами,
сотрудничество,
национальные культурные
центры.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность торгово-экономических, социальных, культурно-гуманитарных отношений между Узбекистаном и Китаем. Также усилия Узбекистана по укреплению международных связей и дружественных отношений с зарубежными странами были раскрыты в внешнеполитическом отделе Комитета по межнациональному связям и дружественным связям с зарубежными странами при Министерстве культуры.

Комитет межнациональных отношений последовательно и эффективно реализует государственную политику по обеспечению межэтнического согласия и толерантности в обществе. В настоящее время Комитет реализует государственную политику, направленную на обеспечение межэтнического согласия и толерантности в обществе, установление дружественных международных отношений, осуществление взаимного сотрудничества с гражданскими сообществами зарубежных стран с использованием механизма «народной дипломатии».

Усилия Узбекистана по укреплению межнациональных связей и внешних связей важны и служат укреплению межэтнической, межкультурной и межконфессиональной толерантности. В основе этих отношений взаимное доверие, установленное между Узбекистаном и Китаем, свидетельствует о общности взглядов на терроризм, экстремизм, сепаратизм, наркотики и незаконную торговлю оружием. Кроме того, Узбекистан положил начало новой эпохе сотрудничества с одной из самых могущественных стран XXI века – Китайской Народной Республикой не только в международной, межкультурной, но и в политической, экономической, торговой, научной и культурной сферах. доказал, что поставил В этот новый период реализуется пятилетняя программа развития всестороннего стратегического партнерства между сторонами.

KIRISH

O‘zbekiston – Xitoy munosabatlari tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Buyuk ipak yo‘li xalqlarimizning savdo-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-gumanitar hamkorligida muhim o‘rin tutgan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasining XXR bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarildi.

Tarix zarvaraqlarida muhrlangan muddatli hamda samarali O‘zbekiston – Xitoy munosabatlarining asosiy tamoyillari ko‘plab hujjatlarda, jumladan, “Do‘stlik va hamkorlikning sherikchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma (2005y.)”, “Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya (2012y.)”, “Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma (2013y.)”, “Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi qo‘shma deklaratsiya (2013y.)”, “O‘zbek–Xitoy hamkorligini yanada kuchaytirish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya (2014y.)”, Strategik hamkorlik to‘g‘risidagi o‘zaro anglashuv bitimi (2016 y.) va Xalqaro avtomobil transport yo‘li to‘g‘risidagi bitim (2017y.)larda o‘z aksini topganligi fikrimiz dalilidir¹.

Xususan, Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida 2014–2017-yillarga mo‘ljallangan madaniy hamkorlikka oid dasturi (2013-yil noyabr) qabul qilingan edi. Ikki tomonlama madaniy munosabatlarni mustahkamlashda 1998-yilda tashkil etilgan “O‘zbekiston–Xitoy” va 2007-yil o‘z faoliyatini boshlagan “XXR–Markaziy Osiyo mamlakatlari” do‘stlik jamiyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikki mamlakat do‘stlik jamiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro delegatsiyalar almashinuvi davlatlararo aloqalarni yanada mustahkamlashga ko‘maklashmoqda².

Ayniqsa, so‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar yanada yaxshilanmoqda. Jumladan, 2017-yilda Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 25 yilligi arafasida Shanxay universitetida buyuk alloma Alisher Navoiy haykali ochilishini ta’kidlash joizki, ikki davlat mintaqaviy hamkorligini rivojlantirish borasida metropol subyektlar (Toshkent–Shanxay, Samarqand–Sian shaharlari, Navoiy–Chjuchjou, Toshkent–Xunan, Samarqand va Shensi viloyatlari) o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri munosabatlar o‘rnatilganligi natijasida ikki mamalakat hududlarining aloqalari rivojlanib bormoqda³.

O‘zbekiston–Xitoy munosabatlarining shartnomaviy-huquqiy negizi turli sohalarni qamrab olgan 220 dan ortiq hujjatlarda ko‘rish mumkin⁴.

Hududlararo hamkorlikni rivojlantirish millatlararo munosabatlar, madaniy aloqalarni jadallashtirish, shuningdek, birodarlashgan qadimiy Samarqand va Sian, Buxoro va Loyan shaharlari o‘rtasida sayyohlar almashishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish imkonini berdi. Muzokaralarda xalqlarimizning boy madaniyati, urf-odati va an’alarini keng targ‘ib qilishga qaratilgan turli madaniy muloqotlar va uchrashuvlarni tashkil qilish masalalariga e’tibor qaratildi.

¹За монавий ўзбек-хитой муносабатлари(2010–2018) https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3946.Murojaat_qilingan_sana_10/02/2024.

²За монавий ўзбек-хитой муносабатлари(2010–2018) https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3946.Murojaat_qilingan_sana_10/02/2024

³ Утамуродов А. Фуқаролик жамияти тоялари эволюцияси. – Т.: “Адабиёт учқунлари”, 2018. – Б. 193; https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3946.Murojaat_qilingan_sana_10/02/2024.

⁴ Idirov U. O‘zbekiston–Xitoy do‘stona munosabatlari rivojinining mustahkam zaminlari. Sharq mash‘ali. 2013 – №1 – B 51.

Aytish mumkinki, O‘zbekistonning millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalarini mustahkamlash borasida olib borayotgan ishlari muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston—Xitoy do‘sligini mustahkamlashda xalq diplomatiyasining ahamiyati katta bo‘lib, millatlararo, madaniyatlararo, konfessiyalararo va tillararo bag‘rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, ikki davlatning Buyuk ipak yo‘li chorrahasida Osiyodan boshlab, Yevropa, Afrikaga qadar turli madaniyat, til va diniy qarashlarga ega xalqlar bilan o‘zaro sivilizatsion aloqalarining shakllanganligi, xalq diplomatiyasi tarixning barcha davrlarida to‘xtovsiz rivoj topib kelganligini zamonaviy tarixiy asoslar yana bir marta isbotladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning qayd etishicha, ...O‘n yil ichida Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklash bo‘yicha ushbu ulug‘vor g‘oya sayyoramizning barcha burchaklarida o‘z tarafдорларини то‘pladi va dunyo davlatларининг uchdan ikki qismini birlashtirdi. Bugungi kunda u jozibali konsepsiyanidan amaliy haqiqatga aylanmoqda. У цивилизациявиy, iqtisodiy va madaniy tafovutlar asosidagi ajratuvchi chegaralardan voz kechib, davlatlararo muloqot, millatlararo munosabatlar va hamkorlikni mustahkamlashning mutlaqo yangi formulasini kashf etdi, bu umumiy farovonlik yo‘lida insoniyat sa'y-harakatларини maksimal darajada birlashtirish imkonini beradi⁵.

Tarixiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Tan sulolasi davri Xitoyning Samarcand, Buxoro va mintaqamizning boshqa yirik shaharlari bilan gumanitar aloqalarining eng yuqori gullab-yashnagan davri bo‘lishi bilan birga, san‘at, moda, milliy taomlar va madaniy almashinuvning barcha jihatлари Xitoy poytaxti va mintaqalarida juda mashhur bo‘lgan.

Qadimdan ildiz otgan madaniy-tarixiy aloqalar, yaqin mentalitetga, mustahkam do‘slik, o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillariga asoslangan zamonaviy munosabatlar bugun har tomonlama va keng ko‘lamli hamkorligimiz uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, xitoylik savdogarlar Buyuk ipak yo‘li ochilgandan buyon tashrif buyurib kelmoqda. Bundan tashqari, Xitoy bilan yaqin savdo aloqalari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent, Samarcand, Buxoro va Qo‘qonda Rus-xitoy banki filialлари faoliyat ko‘rsatgan. Shu bilan birga Farg‘она vodiysida, Samarcand va Sirdaryo viloyatларida yashagan etnik xitoyliklar haqida ma’lumotlar uchraydi. Samarcand viloyatining Qo‘rg‘ontepa uyezdida (1917) 31 kishi yashagan.

XVIII asrning o‘rtalari va XIX asrning 70-yillariga qadar Qo‘qon xonligi bilan Ching imperiyasi o‘rtasidagi siyosiy-diplomatik munosabatlar tarixi hali yetarlicha o‘rganilmagan va dolzarb bo‘lib qator tadqiqotlarni talab etadi.

Xitoy bilan O‘zbekiston manfaatlari va taqdiri mushtarak, quvonch va tashvishni birgalikda baham ko‘radigan teng huquqli hamda o‘zaro manfaatdor sheriklar hisoblanadi. Xalqlarimiz o‘z orzusini ro‘yobga chiqarish, mamlakatларимизни rivojlantirish va millat nufuzini yanada yuksaltirishga intilmoqdalar.

Markaziy Osiyo turli davrlarda Xitoyni Yaqin Sharq hamda Yevropa bilan bog‘laydigan ko‘prik vazifasini o‘tab kelgan. Bugungi kunda esa O‘zbekiston iqtisodiyotida bir-birini

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M.Mirziyoyevning Xitoyna davlat tashrifi arafasida (23–25-yanvar) «Jenmin jibao» gazetasida “O‘zbekiston—Xitoy: ming yillar davomidagi do‘slik va hamkorlik” nomli maqola O‘zbekiston va XXR munosabatларining istiqbollariga bag‘ishlangan fikr-mulohazalaridan olindi. https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/22/president/murojaat/qilingan_sana.

to‘ldiradigan sohalar – ishlab chiqarish, sanoat kooperatsiyasi, madaniy va turizm sohalarida ham foydalanilmagan imkoniyat yanada keng.

Maqsad va vazifa. Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ortiq millat va elatlар hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga munosib hissa qo‘sib kelmoqdalar. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari turmushga faol tatbiq etilmoqda, bu qoidalar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an’analariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlaydi.

Qolaversa, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida, shuningdek Markaziy Osiyoda barqarorlik mustahkamlanishida nafaqat rivojlangan G‘arb mamlakatlari, balki iqtisodiy o‘sish sur’ati kuchayib borayotgan Osiyo mamlakatlari, xususan, XXR bilan ko‘p qirrali aloqalar muhim o‘ringa ega.

Hozirda Buyuk ipak yo‘lining zamonaviy bosqichida XXR Raisi Si Szinpin tomonidan 2013-yil ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro taraqqiyot tashabbusi orqali rivojlantirilmoqda. 2023-yil may oyida Xitoyning Sian shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo va Xitoy” mintaqalararo birinchi forumida ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni yanada jadallashtirish taklifi ikki davlat oldida qator hamkorlik vazifalarini yuklaydi⁶.

Buni O‘zbekiston va XXR yetakchilarining rasmiy uchrashuvlari, muloqotlar chog‘ida o‘zgarib borayotgan global tartibot sharoitida o‘zaro manfaatli aloqalarni jadallashtirish zarurligini ta’kidlab kelayotganligidan ham kuzatish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 17-oktabr kuni Xitoyda kompleks masalalar, jumladan, davlatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va har tomonlama strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga oid dolzarb masalalarni ko‘targan⁷. Davlatimiz rahbari qayd etishicha, “Bir makon, bir yo‘l” global tashabbusi qisqa davr ichida insoniyatning umumiyligi taraqqiyot va farovonlikka erishishiga xizmat qiladigan ochiq platformaga aylandi. Masalan, O‘zbekiston va Xitoydagi ayrim ijtimoiy muammolar (iqlim o‘zgarishi, tartibsiz migratsiya, aholi qarishi, sog‘liqni saqlash, kambag‘allikni kamaytirish)ga qarshi kurashishda hamkorlik taklifi, Global va mintaqaviy masalalar bo‘yicha ikki va ko‘p tomonlama siyosiy muloqot hamda o‘zaro qo‘llab-quvvatlov mavjudligi hamda Markaziy Osiyonи Yaqin Sharq bilan bog‘laydigan temir yo‘l loyihasiga XXRni jalb etishni ko‘rsatib o‘tish joiz.

Yana bir jihatga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha Shanxay konvensiyasi, SHHTga a’zo davlatlarning chegara masalalari bo‘yicha hamkorligi va hamjihatligi to‘g‘risidagi shartnomaning tuzilishi hamda amalga oshirilishi transchegaraviy jinoyatchilik, terroristik va ekstremistik guruhlar faoliyatiga barham berish va shu tariqa tashkilotga a’zo davlatlar oldida turgan xavfsizlikka rahna soladigan tahdidlarga qarshi hamkorlikda samarali kurashish imkonini bermoqda⁸.

⁶ <https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3946.Murojaat qilingan sana 10/02/2024>.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019yil 23–27 aprel kunlari Xitoyda o‘tkazilgan – Bir makon, bir yo‘ll ikkinchi xalqaro forumda gi nutqi

⁸ Ўзбекистон–Хитой: стратегик шериклик ва дўстлик муносабатларини янада ривожлантириш йўлида // www.aza.uz.

Aytib o‘tish joizki, har ikkala mamlakatning o‘zaro manfaatdorlik, tenglik, ochiqlikka asoslangan hamkorlik aloqalarining tez sur’atlar bilan rivojlanib borishi zaminida avvalambor, ularning taraqqiyot prinsiplari va tashqi siyosat strategiyasidagi o‘xhashlik, yaqinlik hamda maqsad-muddaolarning uyg‘unligi holati yotadi⁹.

Natijalar va mulohaza. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan tan olinishi 1991-yilning 27-dekabrida yuz bergan bo‘lsa, 1992-yil 2-yanvarda diplomatik munosabatlар o‘rnatildi¹⁰. 1992-yil oktabr oyida Toshkentda XXR elchixonasi va 1995-yil may oyida esa Pekinda mustaqil O‘zbekiston elchixonasi faoliyat ko‘rsata boshladi.

1991-yil 26-iyulda O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan XXRning Shinjyang¹¹—Uyg‘ur tumani o‘rtasida savdo bitimi imzolanganligi, Shinjyang-Uyg‘ur tumani bilan Andijon viloyati Asaka shahrining birodarlashgan shaharlar sifatida rasman qayd qilinishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, 2002-yilda esa Shinjyang-Uyg‘ur tumani markazi Urumchi shahrida Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekiston uchun «xalqaro bozor»ning ochilishi ikki mamlakat xalqlari iqtisodiy aloqalarining mustahkamladi¹².

O‘z o‘rnida aytib o‘tish joizki, tarixchilarning ma’lumotiga asosan Markaziy Osiyo atamasini O‘rta Osiyo (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston), Sintszyan-Uyg‘ur muxtor tumani (XXR, G‘arb ilmiy adabiyotlarida Sharqiy Turkiston), Tibet va Mo‘g‘ulistoniga nisbatan qo‘llash mumkin¹³.

Ikki tomonlama hamkorlik munosabatlari O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi o‘rnatilgan o‘zaro ishonchli aloqalarining asosini tashkil etib, ushbu munosabatlarda terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotik va noqonuniy qurol-yarog‘lar savdosi bo‘yicha qarashlarning mushtarakligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ushbu maqsadlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagি PF-5046-sonli Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etilgan bo‘lib, u o‘z faoliyati doirasida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha davlat siyosatini izchil hamda samarali amalga oshirib kelmoqda.

Hozirgi kunda Qo‘mita jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish, do‘stona xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiatlari bilan do‘stlikni mustahkamlash, 38 ta do‘stlik jamiyatlari va 98 ta xorijdagi vatandoshlar jamiyatlari bilan “xalq diplomatiyasi” mexanizmidan foydalangan holda o‘zaro hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston barcha xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro foydali munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor bo‘lib, asosiy tashqi siyosiy harakatlarini 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan eng muhim sohalarga qaratgan bo‘lsa, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi

⁹ Idirov U. O‘zbekiston–Xitoy do‘stona munosabatlari rivojining mustahkam zaminlari. Sharq mash‘ali. 2013 – №1 – B 51.

¹⁰ Idirov U. O‘zbekiston–Xitoy do‘stona munosabatlari rivojining mustahkam zaminlari. Sharq mash‘ali. 2013 – №1 – B 51.

¹¹ Qarang: Ходжаев А., Кўлдашев Ш. Джуманиёзова Ф. Марказий Осиё давлатчилиги тарихига оид маълумотлар (Хитой манбалари асосида). – Тошкент: “Фан”, 2018. – Б.15.

¹² Qo‘ldoshev Sh. Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston: siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar [Matn] /nashrga tayyorlovchi Sherli Qo‘ldoshev. – Toshkent: “Aka demnashr”, 2021. – 256 b.

¹³ Xodjayev A. Kitayskiy faktor v Sentralnoy Azii. – Tashkent: “Fan”, 2004. – S.4 – 5

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tomonidan Singapur, Estoniya, Vyetnam, Germaniya, AQSH, BAA, Mo‘g‘uliston, Koreya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar bilan bir qatorda XXR bilan ham har tomonlama aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha berilgan topshiriqlar va “yo‘l xaritalari”ning ijrosi bo‘yicha qator ishlar olib borilmoqda¹⁴.

2018-yil 24-noyabrda Qo‘mitada Xitoyning Millatlar va din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi o‘rinbosari Bateyer boshchiligidagi Xitoy delegatsiyasi hamda qo‘mita vakillari ishtirokida muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Bu esa mazkur sohadagi qadamlarning yanada rivojlanganligidan dalolat beradi. Xususan, muzokaralar jarayonida Bateyer boshchiligidagi delegatsiya XXRning mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Szyan Yan va boshqalar mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik izchil rivojlanayotgani, bunda ikki davlat rahbarlarining doimiylilik kasb etgan muloqotlari chog‘ida erishilgan kelishuvlar muhim o‘rin tutayotganini ta‘kidladi¹⁵.

O‘zbekistonga Xitoy Etnik ishlar bo‘yicha milliy komissiyasi rahbari Pan Yue boshchiligidagi delegatsiyasi Millatlararo munosabatlar qo‘mitasiga amaliy tashrif bilan keldi.

Mazkur tashrif Millatlararo munosabatlar qo‘mitasi hamda Xitoy etnik ishlar bo‘yicha milliy komissiyasi o‘rtasida imzolangan Memorandum (2022-yil fevral) kelishuvlarini amalga oshirish doirasida millatlararo totuvlikni ta‘minlash yuzasidan o‘zaro tajriba almashish maqsadida amalga oshirilmoqda. Tashrifdan maqsad – O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasida turli sohalar, jumladan, millatlararo munosabatlar, ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar, ta‘lim hamda boshqa tarmoqlarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishdan iborat. Tashrif doirasida Simpoziumlar saroyida Xitoy delegatsiyasi a’zolarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Muzaffar Komilov bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi¹⁶.

Uchrashuvda Prezident maslahatchisi M.Komilov mehmonlarni qizg‘in qutlab, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan yurtimizda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan siyosat xususida so‘z yuritdi. Jumladan, O‘zbekiston va Xitoy mamlakatlarini ming yillikdan beri davom etib kelayotgan madaniy, iqtisodiy va do‘stlik aloqalari birlashtirib turishi va bugungi kunda madaniy gumanitar sohad a ham aloqalar rivojlanib borayotganligi aytib o‘tildi¹⁷. Xususan, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan Konfutsiy institutlari, 2019-yilda Samarqandda Konfutsiy haykali o‘rnatilgani, XXRdagи oliyoghlarida o‘zbek tili o‘rgatilayotgani, Xitoyda O‘zbekiston madaniyat kunlari o‘tkazilgani xalqlarimiz o‘rtasidagi yorqin madaniy do‘stlik aloqalarining dalilidir deb tanitiladi. Ushbu tashrif davomida ham qator istiqbolli kelishuvlarga erishishga muvaffaq bo‘lishga ishonch bildirdi.

O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan 157 ta milliy madaniy markazlarga imtiyozli do‘stlik uylari, davlat grantlari va subsidiyalar taqdим etib borilishi, Millatlararo munosabatlar qo‘mitasi bilan XXRning bir necha tashkilotlari o‘rtasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgani, shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan O‘zbekiston Respublikasini kelgusida rivojlantirish borasida belgilab bergen va olib borayotgan siyosatida millatlararo totuvlik va do‘stlik aloqalarini mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi ta‘kidlab o‘tildi.

¹⁴ Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi joriy arxivi. 2020-yil.

¹⁵ Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi joriy arxivi. 2023-yil.

¹⁶ Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi joriy arxivi. 2022-yil.

¹⁷ O‘sha yerda.

O‘z navbatida, Pan Yue shunday dedi: “Xitoy O‘zbekistonga o‘xhash ko‘p millatli va madaniyatli davlat. Bugungi kunda Xitoydagi o‘zbeklar soni 13000 ga yetadi. Davlatimizning millatlararo munosabatlarda olib borayotgan siyosatining ustuvor jihatlaridan biri bu—davlat va turli idora-tashkilotlar faoliyatida xorijiy millat vakillarining ham mehnat qilishini ta‘minlash, sharoitlar yaratishdir.

O‘zbekistonda milliylik va madaniyatlar shakllanishi haqida, ularning tarixi va bugungi kundagi turfa xilma-xilliklar to‘g‘risida Milliy ishlar darsligi yozilmoqda. XXR raisi Si Szinpin tashabbusi bilan Konfutsiy va Islom dini mushtarakligi va maqsadlarini o‘rganish jarayonlari olib borilmoqda. Bundan maqsad milliy xilma-xillikni ko‘paytirish, madaniyatlar rivoji uchun imkoniyatlar yaratishdir. Kelgusida yoshlar ta’limi sohasida ham istiqbolli ishlar amalga oshirishga umid qilamiz. O‘zbekistondagi barcha fuqarolarning qonun oldida tenglik siyosati bizni juda ham quvontiradi. Ta’lim, texnologiyalar kabi sohalardagi hamkorlikdan manfaatdormiz”¹⁸.

Suhbat davomida ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini mustahkamlash yo‘lida amalga oshirilgan ishlar va kelgusida qilinishi kutilayotgan masalalar yuzasidan fikr bildirdi. Suhbatda ikki mamlakat aloqalarini turli sohalarda yanada rivojlantirish masalalari, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy va turizm sohalarida hamkorliklar yuzasidan fikr almashildi. Jumladan, do‘stlik va ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, fuqarolar totuvligi barqarorligini, turli millatlar vakillari o‘rtasidagi tinchlik va hamjihatlikni ta‘minlash, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishga xizmat qilib kelayotganligi ta‘kidlandi.

Uchrashuv davomida Xitoy delegatsiyasi rahbari Pan Yue O‘zbekiston va Xitoy respublikalari o‘rtasida oxirgi yillarda boshqa sohalar qatori madaniy-ma'rifiy aloqalar ham rivojlanib borayotgani va bugungi muloqot ham yangi hamkorliklarning boshlanishi ekanligini aytib o‘tdi. Ikki mamlakat jamoatchiligining bunday faol muloqoti mamlakatlar o‘rtasida do‘stlik aloqalarining mustahkamlanishiga olib kelishi ta‘kidlandi.

Xususan, 2023-yilning yanvar oyida Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani 42-sonli umumta‘lim maktabida Toshkent shahar dungan madaniyat markazi tomonidan oy taqvimi bo‘yicha “Yangi yil” bayramiga bag‘ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbir tashkillashtirildi. Tadborda Millatlararo munosabatlар qо‘mitasi mas’ul xodimlari, Toshkent shahar dungan madaniyat markazi a’zolari, yoshlari va faollari, Xitoy Xalq Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi vakillari, maktab rahbariyati, o‘qituvchilari va o‘quvchilari, “Dungan” mahallasida istiqomat qiladigan fuqarolar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillaridan iborat jami 100 nafardan ortiq kishi ishtirok etdi.

Mazkur tadborda so‘zga chiqqan Xitoy elchixonasi maslahatchisi Chjan Sindun oy taqvimi bo‘yicha “Yangi yil”ning kelib chiqish tarixi hamda uning nishonlanishi to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tib, O‘zbekistondagi dunganlar tilini, an’anasi, tarixi, urf-odatlari va madaniyatini saqlab qolish va rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar uchun mamlakat hukumatiga o‘z minnatdorchiligini bildirdi.

Shuningdek, Qo‘mita mas’ul xodimlari Xitoy Xalq Respublikasi Savdo vazirligi (MOFCOM) huzuridagi Xalqaro biznes vakillari akademiyasi (AIBO) tomonidan Pekin shahrida

¹⁸ Millatlararo munosabatlар va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini qо‘mitasi joriy arxiv. 2022-yil.

tashkil etilgan “Seminar of Ethnic Policy and Practices for Developing Countries” mavzusidagi seminarda ishtirok etishi ham fikrimiz dalilidir.

Bundan tashqari, Qo‘mita mas’ul xodimlaridan iborat delegatsiyasi 2023-yilning 4–9-sentabr kunlari Xitoy Xalq Respublikasining Gansu viloyati Dunxuan shahrida “6-Ipak yo‘li xalqaro EKSPO madaniy” ko‘rgazmasi doirasida bo‘lib o‘tgan qator tadbirlarda ishtirok etganligi ham bu boradagi ishlarning alohida namunasidir.

2023-yilda Xitoyning Gansu viloyati Dunxuan shahrida “6-Ipak yo‘li xalqaro EKSPO madaniy” ko‘rgazmasining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbir Xitoy Xalq Respublikasi Madaniyat vaziriligi, Xitoyning Gansu viloyati hokimligi, Xitoy xorijiy mamlakatlар bilan do‘slik xalq jamiyati tomonidan tashkillashtirildi¹⁹. Ko‘rgazmaning tantanali ochilish marosimida 30 dan ortiq davlatdan kelgan delegatsiyalar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. EKSPO ko‘rgazmasining asosiy maqsadi xalqlar o‘rtasidagi madaniy-gumanitar muloqotlarni rivojlantirish, tarixiy yodgorliklarni saqlash, turli xalqlarning milliy an’analari va urf-odatlarini keljak avlodga yetkazishdan iborat.

Mazkur ko‘rgazma doirasida “Цивилизациялар о‘rtasida madaniy almashinuvlar” mavzusidagi xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda 20 dan ortiq mamlakatlardan tashrif buyurgan 100 dan ortiq mehmonlar ishtirok etishdi. Muloqot davomida Xorvatiya, AQSH, Armaniston, Moldova, Avstriya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Eron, Hindiston, Misr, Belorusiya, Rossiya, O‘zbekiston, Taiti, Yangi Zellandiya, Tojikiston, Qirg‘iziston, Pokiston, Fransiya davlatlaridan tashrif buyurgan diplomatik korpus vakillari hamda ekspert va mutaxassislar hozirgi kunda dunyodagi dolzarb masalalar xususida fikr yuritib, keljakda madaniyatlararo цивилизацияни rivojlantirish, xalqlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va do‘slik rishtalarini mustahkamlash borasida o‘z fikr va takliflarini bildirib o‘tishdi.

O‘zbek-xitoy xalq diplomatiyasi tarixiga nazar solsak, unda XXR hukumati va jamoatchilikning turli doiralari qo‘llab-quvvatlaydigan Xitoy xorij bilan do‘slik jamiyati, “Xitoy-Markaziy Osiyo” do‘slik jamiyati, “Xitoy-Markaziy Osiyo hamkorlik forumi”, Xitoy Xalq diplomatiyasi strategiyasini o‘rganish markazi hamda Butun Xitoy do‘slikka ko‘maklashish assotsiatsiyasi alohida o‘rin tutadi. Xususan, Xitoyda 20 dan ortiq xalq diplomatiyasi markazlari, do‘slik jamiyatları, turdosh tashkilotlar bilan aloqalar ham xalqlar o‘rtasida do‘slik muhitining shakllanishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar O‘zbekistonning ko‘plab shahar va viloyatlari Xitoy Xalq Respublikasining Xunan, Chjetszyan, Shensi provinsiyalari, Shanxay, Yanchjou, Sian, Loyan shaharlari bilan birodarlik aloqalarini o‘rnatgan.

Bugun dunyoning turli mintaqalarida milliy nizolar keskinlashib, millatchilik ko‘rinishlari kuzatilayotgan bir paytda ko‘p millatli bu ikki davlatda millatlararo totuvlik omili, tinchlik va osoyishtalikning kafolati, xalqaro hamjamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lib qoldi. Davlatlarning millatlararo munosabatlar sohasidagi milliy siyosatga qo‘yadigan asosiy talablari xalqaro huquq normalari bilan belgilanadi.

XULOSA

O‘zbekistonda turli millatga mansub fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotdagi faol ishtirokini ta’minlash, ularning milliy o‘zligini anglashi hamda etnik qadriyatlarini saqlab qolishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik, eng avvalo, boy tarixiy-ma’naviy meros, milliy qadriyat, urf-odat

¹⁹ Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlari bilan do‘slik aloqalarini qo‘mitasi joriy arxiv. 2023-yil.

va an'analar asosida milliy o'zligini anglagan, milliy g'urur-iftixori yuksalgan, umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari asosida dunyoqarashi shakllangan barkamol avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Aytish mumkinki, O'zbekiston va Xitoy munosabatida davlatlararo, millatlararo va madaniyatlararo yangi davr boshlangan. Yangi davrda tomonlar o'rtasida kompleks strategik sheriklikni rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur ham amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda millatlararo totuvlikni kuchaytirish bag'rikenglik muhitini mustahkamlash garovi ekanligini yana bir karra isbotlaydi. O'zbekistonda keyingi yillarda millatlararo munosabatlar masalasiga katta e'tibor qaratilayotganligini alohida e'tirof etish joiz. Qolaversa, bugungi kunda xorijiy ekspertlar O'zbekistonda kuchli davlat tizimi shakllanganini mammuniyat bilan ta'kidlamoqdalar. Bunga sabab ko'pmillatli O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning ta'minlanganligi milliy bag'rikenglik muhiti, turli xalqlarning madaniyati va urf-odatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilganligi hamda uning poydevori mustahkamligidadir.

Umuman olganda, XXI asrning eng qudratli davlatlaridan biri – Xitoy Xalq Respublikasi bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo, ilm-fan va madaniy sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirish O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi joriy arxivi. 2023-yil.
- 2.Internet sahifasi: <https://t.me/millatlararoqumita>. Murojaat qilingan sana: 28.08.2023.
- 3.Internet sahifasi: web sayt: <http://interkomitet.prepod.uz/>. Murojaat qilingan sana: 12.09.2023.
- 4.Idirov U. O'zbekiston–Xitoy do'stona munosabatlari rivojining mustahkam zaminlari. Sharq mash'ali. 2013 – №1 – B 51.
- 5.Do'stov U. Zamonaviy o'zbek-xitoy munosabatlari (2010–2018) // https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3946/#_ftn2 –2019-yil 30- yanvar.
- 6.Сунь Чжуанчжи. Новая ситуация в Центральной Азии и безопасность региона. – Пекин, 2001. –С. 208–209.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019yil 23–27aprel kunlari Xitoyda o'tkazilgan – Bir makon, bir yo'll ikkinchi xalqaro forumdag'i nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/2533qi>.
- 8.Ходжаев А., Н.Каримова. Сведения китайских источников по истории государственности Центральной Азии (переводы и исследования). Ташкент: Фан, 2018.
- 9.Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2004. – С.4
- 10.Xo'jayev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar – Farg'ona: Farg'ona, 2013, B.288.
- 11.Xo'jayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar. – Toshkent, 2015.
- 12.Ходжаев А. Великий шелковый путь: Связи и судьбы – Ташкент: Навруз, 2018.
- 13.<https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3946>. Murojaat qilingan sana 10/02/2024.
- 14.Qo'ldoshev Sh. Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston: siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar [Matn] /nashrga tayyorlovchi Sherli Qo'ldashev. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 256 b.